

Tojikiston Prezidenti O'zbekistonga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 2-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida uni Prezident Shavkat Mirziyoyev kutib oldi. Yetakchilar o'rtasida qisqa suhbat bo'lib o'tdi.

So'ng Tojikiston Prezidenti "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi. Mehmonga majmuaning mazmun-mohiyati va me'moriy xususiyatlari haqida so'zlab berildi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizga kelgan oliy darajadagi mehmonlar tomonidan ushbu monumentga gul qo'yish marosimi an'anaga aylandi.







Manba